



RECONSTRUCTION PLAN AND CONSTRUCTION WORKS OF THE CITY OF JIZAKH (1991-2021)

D. T. Abdurasulova
JDPU teacher
Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: City, reconstruction, modern avenue, creativity, musical fountain, markets, Memorial Park, landscape.

Received: 02.03.26

Accepted: 03.03.26

Published: 04.03.26

Abstract: This article states that during the years of independence, urban reconstruction work was carried out in the city of Jizzakh, that there was a need to adapt the old city to the requirements of the time, and that creating convenience for the population was the main criterion in the construction of the city of Jizzakh.

JIZZAX SHAHRINIG QAYTA QURISH REJASI VA BUNYODKORLIK ISHLARI (1991-2021 YILLAR)

D. T. Abdurasulova
JDPU o'qituvchisi
Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Shahar, qayta qurish, zamonaviy xiyobon, bunyodkorlik ishlari, musiqali favvora, bozorlar, Xotira bog'i, landshaft.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Jizzax shaharida shaharni qayta qurish ishlari olib borilayotganligi, eski shaharni zamon talablariga moslashtirish zaruriyati paydo bo'lganligi va Jizzax shahari qurilishida aholi uchun qulaylik yaratish bosh mezon ekanligi aytilgan.

ПЛАН РЕКОНСТРУКЦИИ И СТРОИТЕЛЬНЫХ РАБОТ ГОРОДА ДЖИЗАК (1991-2021 годы)

Д. Т. Абдурасулова
Преподаватель в ДГПУ
Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Город, проспект, рынки, современный фонтан, Мемориальный парк, ландшафт.	Аннотация:	В данной статье говорится о том, что в годы независимости в городе Джизаке была проведена реконструкция города, возникла необходимость приспособления старого города к требованиям времени, и основным критерием для строительства города Джизак это создание комфорта для населения.
------------------------	--	-------------------	---

Mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekistonning qator shaharlari, viloyat markazlarini keng miqyosda qayta qurilish ishlari olib borilmoqda. Eski shaharni qaytadan qurish hamda uni o'zgaruvchi talablarga moslashtirish zaruriyati paydo bolmoqda. Shaharni qayta qurish shaharsozlikni rivojlantirishning muhim ajralmas qismi bo'lgan holda: shaharlarni birin-ketin yangilash yo'li bilan aholini normal ishlab chiqarish faoliyati uchun sharoit yaratishni, insonning doimiy o'sib boruvchi ma'naviy va moddiy talablarini qondirishni, aholini mehnat, turmush va dam olish sharoitlarini tubdan yaxshilashni o'zining maqsadi qilib belgilagan.

Shaharni qayta qurish- deganda mavjud shaharlarni rejalashtirish va qurishni takomillashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bundan ko'rinadiki, qayta qurish shahar hududini rivojlantirishga imkon beradi.

1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Jizzax shahrida ham qurilish sohasida yangi bosqich boshlandi. Avvalgi markazlashgan tizim o'rniga mahalliy boshqaruv va bozor iqtisodiyoti elementlari joriy etildi. Bu holat qurilish korxonalarining faoliyatini qayta tashkil etishni taqozo etdi. Jizzax viloyatidagi shaharlarning ham qayta qurish, qiyofasini o'zgartirish, tabiiy iqlim sharoitiga mos va o'ziga xos landshaft ko'rinishga ega bo'lgan binolarni barpo etish shaharsozlik madaniyati rivojida muhim ahamiyatga ega. Jizzax viloyati iqlimi, tabiati, aholi joylashuvi xususiyatlari shaharlardagi qurilish ishlarini olib borishda asosiy omil bo'ldi. Eng muhimi, shaharlar qurilishida aholi uchun qulaylik yaratish bosh mezonga aylandi. Davlat byudjeti va mahalliy hokimiyatlar mablag'i hisobidan shaharlarining bosh rejalarini tuzish tartibi belgilandi .

Jizzax shahrining bosh rejasi qaytadan ishlanib, zamonaviy inshootlar qurilishi, savdo majmualarining barpo etilishi ko'zda tutilgan. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi "Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yig'inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oishirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 286-sonli qarori ga binoan viloyat shaharlari, tuman markazlari, ayniqsa, Jizzax shahrining qiyofasini tubdan o'zgartirish bo'yicha

bosh reja asosida ishlar olib borilayotganligi e'tiborga molikdir. Markaziy ko'chalar kengaytirilib, turar joy binolari qad ko'tarmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2013 yilning 19 iyunida viloyatga tashrifi chog'ida bosh reja asosida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan atroflicha tanishdi. Shuningdek, Jizzax shahrining bosh rejasida, albatta, aylanma xalqa yo'lining qurilishi ko'zda tutilishi lozimligi xususida qimmatli maslahatlarini berdi. «Har bir shaharning bosh rejasi ustida ishlaganda, bino va yo'llar qurayotganda, besh-o'n yil emas, balki uzoq istiqbolni o'ylab ish yuritish lozim. Ular har tomonlama mukammal manzara hosil qilsin, shu bilan birga, pishiq va mustahkam bo'lsin, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizga ham xizmat qilsin», – degan fikrlarni qayd etgan edi.

1991–1995 yillarda Jizzax shahrida asosan mavjud infratuzilmani saqlab qolish va ta'mirlash ishlari olib borildi. Shaharning markaziy ko'chalarida yo'l ta'miri, maktablar, bolalar bog'chalari va sog'liqni saqlash muassasalari binolarini kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, aholini ichimlik suvi va elektr energiyasi bilan ta'minlash tizimini barqarorlashtirishga qaratilgan loyihalar bajarildi.

1991 yilda Jizzax viloyatida qurilishga 249,2 mln so'm davlat mablag'i ajratilgan bo'lib, bu ajratilgan qurilish mablag'larining 59,0%ini tashkil etgan. 1992 yilda uy-joy qurilishi va foydalanishga topshirish bo'yicha yillik reja bor-yo'g'i 64%ga bajarilgan; viloyat bo'yicha topshirilmay qolgan uy-joylar 117 ming kv.m yetgan (shuningdek maktab va bog'cha o'rinlari bo'yicha ham rejalar bajarilmay qolgan). 1993 yilda Jizzax shahrida 10 dan ortiq yakka tartibdagi uy-joy massivlari qurilgan (masalan, Alisher Navoiy, Uchariq, Hamid Olimjon, Nazir Safarov, Oqqo'rg'onlik massivlari). Alisher Navoiy massivi (Paypoq to'quv fabrikasi yoni) umumiy 102 gektar maydonga ega bo'lib, 4 guruhga ajratilgan: shaxsiy uy-joylar, sport inshootlari, 2 ta maktab va 2 ta bolalar bog'chasi uchun maydon, hamda ijtimoiy-madaniy markazlar maydoni.

1993 yilda Jizzax shahridagi 11 mingdan ziyod turar joy xonalarining barchasi aholiga xususiy mulk qilib berilgan. Shu davrda ayrim ob'ektlarda loyiha va bosh reja tasdiqlanmasdan qurilish boshlangani qayd etilgan; misol uchun «Olmazor» bozorida qurilish ishlari tartibsiz olib borilgan. 1994 yilda qurilishda ishlatilgan 82,1 mln so'm mablag'dan faqat 20,2 mln so'mi davlat mablag'i hisobiga bajarilgan (ya'ni 24,6%). Manbada bu holat davlat mablag'larining ulushi yildan-yilga kamayib, korxona-xo'jaliklar, xususiy mablag' va bank krediti hisobidan qurilish ulushi ortib borgani bilan izohlangan.

1996–2000 yillarga kelib Jizzax shahrida qurilish ishlari nisbatan faollashdi. Bu davrda yangi turar joy massivlari barpo etildi, ko'p qavatli uylar qurilishi boshlandi. Shahar kommunal

xo'jaligi ob'yektlari, jumladan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari bosqichma-bosqich yangilandi. Shu yillarda xususiy qurilish tashkilotlarining soni ham oshib bordi.

1995–2005 yillarda Jizzax shahrida asosan ijtimoiy, ma'muriy va infratuzilma ob'yektlari qurilishiga katta e'tibor qaratildi. Shahar markazidagi ko'plab binolar rekonstruksiya qilinib, zamonaviy qiyofa berildi. Davlat muassasalari binolari, madaniyat uylari va ta'lim muassasalari ta'mirlandi yoki qayta qurildi.

Shuningdek, aholi uchun xizmat ko'rsatuvchi ob'yektlar — savdo do'konlari, bozorlar, maishiy xizmat binolari barpo etildi. Bu qurilishlar aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildi. Alisher Navoiy ko'chasida tijorat banklari mablag'lari hisobidan qad rostlagan 5 ta ko'p qavatli turar joy binolari foydalanishga topshirildi. 2005–2015 yillar O'zbekiston Respublikasi shaharlarida, xususan Jizzax shahrida qurilish va rekonstruksiya ishlari jadal sur'atlarda olib borilgan davr hisoblanadi. Ushbu yillarda ijtimoiy soha, ma'muriy binolar va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

2005–2015 yillarda Jizzax shahrida shahar va viloyat ahamiyatiga ega ma'muriy binolar qurilishi va rekonstruksiya amalga oshirildi. Xususan, shahar hokimligi binolari, davlat idoralari va jamoat muassasalari zamonaviy me'moriy talablar asosida ta'mirlandi.

Ta'lim va sog'liqni saqlash ob'yektlari Mazkur davrda shaharda umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar qurildi. Shuningdek, markaziy shifoxona, poliklinikalar va oilaviy shifokor punktlari faoliyati yaxshilandi.

Yo'l-transport va muhandislik infratuzilmasi Jizzax shahrida yo'l-transport tarmog'ini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Asosiy ko'chalar asfaltlanib, ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari bosqichma-bosqich yangilandi. Savdo va xizmat ko'rsatish binolari 2005–2015 yillarda shaharda savdo majmualari, bozorlar va maishiy xizmat ko'rsatish binolari barpo etildi. Bu qurilishlar shahar iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qildi.

O'zbekiston va I. Karimov ko'chalari hamda Temir yo'l vokzali atrofining batafsil rejalashtirish loyixalari ishlab chiqilgan.

Mustaqillik ko'chasining batafsil rejalashtirish loyihasiga asosan 3,5 km. uzunlikdagi avtomobil yo'li, 7 km. piyodalar yo'laklari va muxandislik tarmoqlari (ichimlik suvi, elektr, gaz va oqova suv) tarmoqlari qurildi hamda imtiyozli bank kreditlari asosida 36 ta 3-4 qavatli 308 ta turar-joy va 116 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari qurildi. Shu bilan birgalikda "O'z shahar qurilish invest" tamonidan 2017 yilda 5 ta va 2018 yilda 10 ta jami 630 ta xonadonga mo'ljallangan 7 qavatli arzonlashtirilgan turar-joylari va bolalar maydonchalari qurilib

foydalanishga topshirildi. Yo‘l bo‘yidagi Eski shahar markaziy dexqon bozori qayta rekonstruksiya qilinib, obodonlashtirildi.

Zamonaviy shaharsozlik loyihalari asosida A.Navoiy ko‘chasining 2,6km. uzunlikdagi bosh reja loyihasi ishlangan bo‘lib, ushbu ko‘chada tasdiqlangan bosh rejaga asosan 32 ta ko‘p qavatli, birinchi qavatli savdo va maishiy xizmat hamda ofis, yuqori qavatli turar-joy binolari qurilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda ushbu hududda 12 ta ko‘p qavatli turar-joy binolari foydalanishga topshirilib, 20 ta binolarda qurilish ishlari yakunlanmoqda. Bundan tashqari ushbu yo‘l bo‘yida 11 ming 150 o‘rinli sport majmuasi, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari mahalla binosi, bank binosi, maktabgacha ta’lim binolari hamda dam olish maydonlari tashkil etilgan.

Shaharda zamonaviy shaharsozlik loyihalari asosida yana bir katta ahamiyatdagi qurilish va bunyodkorlik ishlariga ega Toshkent va Temiryo‘lchilar ko‘chasini bog‘lovchi ko‘cha va Jizzax shahar Temir yo‘l vokzali oldi maydonining loyixasidir. Ushbu maydon 130.0 gektar hududni tashkil etib, birinchi bosqich ishlarida 13 ta 7 qavatli 810 ta uy-joylar, birinchi qavatida 107 ta savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalarida qurilish-montaj ishlari yakunlandi shu bilan birgalikda ushbu hududda keyingi bosqichlarda dam olish maydonlari, mexmonxonalar va xizmat ko‘rsatish binolari, 3 ta umumta’lim maskanlari, 4 ta maktabgacha ta’lim binolari, qurilishi rejalashtirilgan.

Shaharning obodonlashtirish va aholiga dam olish uchun qulayliklar yaratish maqsadida mavjud 7 ta bog‘ va maydonlarni “Yoshlar shaharchasi”, “Istiqlol Bolalar bog‘i”, “Forum maydoni”, “Bolalar Istiroxat bog‘i”, “Xamid Olijon xamda Zulfiya” xiyoboni, “Xotira” maydoni, “Sharof Rashidov” maydonlarida to‘liq ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

I.Karimov ko‘chasida joylashgan umumiy maydoni 5,75 gektarni tashkil qiluvchi Bolalar Istiroxat bog‘ida ikkinchi bosqichda “Buxoro-shirin” MCHJ tomonidan bog‘ xududida kinoteatr, trenajyor zali va yopiq basseyn qurilishi boshlab yuborildi.

Jizzax shahrida bunyodkorlik ishlarini davom ettirish maqsadida shaharning yana bir asosiy yo‘llaridan biri 5.9 km. uzunlikdagi I.Karimov ko‘chasining loyiha taklifi ishlab chiqilgan. Bunda 126 taga yaqin zamonaviy binolar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 101 ta turar joy binolari 6 ta mexmonxonalar, ta’lim maskanlari 2 ta umumta’lim binolari, 3 ta maktabgacha ta’lim maskanlari, 4 ta xususiy sog‘likni saqlash ob‘yektlari, dam olish maskanlari, savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish binolari hamda yo‘l va yo‘l infratuzilma ob‘yektlari, muxandislik tarmoqlari va velotrekklar barpo etilishi rejalashtirilgan.

2019-2020 yillarda shaharning O'zbekiston ko'chasining 1,5 km uzunlikdagi qismida 48 ta ko'p qavatli turar joy binolari 4 ta xizmat ko'rsatish ob'yektlari 2 ta umumta'lim maktab binolari, 2 ta maktabgacha ta'lim maskani, 2 ta xususiy klinikalar va boshqa turdagi binolar qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirda ushbu hududda amaliy ishlar boshlangan.

Bundan tashqari A.Navoiy va O'zbekiston ko'chalarini birlashtiruvchi Sh.Rashidov (O.Azimov) ko'chasining 1,3 km. qismi qayta rekonstruksiya qilinib, yo'l bo'yidagi mavjud xiyobonni qayta ta'mirlash, yo'l bo'yida turizm ob'yektlari, biznes sentr binolari, viloyat qurilish bosh boshqarma binosi qurilishi, mavjud binolarni zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qayta ta'mirlash, maktabgacha ta'lim binolarini qayta rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

2019-2020 yillarda bosh reja asosida bunyodkorlik ishlarini davom ettirish maqsadida O'zbekiston ko'chasini Toshkent ko'chasi va I.Karimov ko'chalari bilan birlashtirish va Toshkent ko'chasini to'lig'icha batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish hamda qurilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

2021 yilning yanvar-dekabr oylarida 1 205,5 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020 yilning yanvar– dekabrga nisbatan 115,1 foizni tashkil etdi. Jizzax shahrida 2021 yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 66,3 ming kv.m. (2020 yil yanvar-dekabrغا nisbatan 98,0 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi. Kommunal qurilishda – 15,0 km suv tarmoqlari va - 4,0 km. gaz tarmoqlari ishga tushirilib, 2020 yilning mos davriga nisbatan – 182,0 foiz suv tarmoqlari va 102,0 foiz gaz tarmoqlarini tashkil qildi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jizzaxda bo'lib o'tgan uchrashuvda shaharni kengaytirish bo'yicha rejalarni ma'lum qildi. "Jizzax shahri aholisi bugungi kunda 180 mingdan oshib, kelgusi besh yilda 230 mingga etishi kutilmoqda. Lekin shaharning infratuzilmasi 50 yil ichida ancha eskirib, hali ham 50 ming aholiga mo'ljallangan desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Shu bois, shaharning qiyofasini, infratuzilmasini tubdan yaxshilash, aholi va tadbirkorlar uchun munosib sharoit yaratish bo'yicha, alohida dasturni amalga oshiramiz."13

Mustaqillik yillarida Jizzax shahrida amalga oshirilgan qurilish va bunyodkorlik ishlari shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutdi. Yangi turar-joy massivlari, ijtimoiy soha ob'yektlari, yo'l-transport infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish binolarining barpo etilishi aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qildi. Shu bilan birga, shahar qiyofasi zamonaviy me'moriy talablar asosida shakllandi. Biroq qurilish ishlarining jadal olib borilishi shahar ekologiyasiga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi. Atmosfera havosining ifloslanishi, qurilish

chiqindilarining ko'payishi hamda yashil hududlarni saqlab qolish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu sababli so'nggi yillarda qurilish jarayonlarini ekologik talablarga mos holda tashkil etish, yashil maydonlarni kengaytirish, sanitar-gigiyenik me'yorlarga qat'iy rioya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Umuman olganda, Jizzax shahrida bunyodkorlik ishlari va shahar ekologiyasi o'zaro bog'liq jarayon sifatida rivojlanib bormoqda. Kelgusida ham shaharni barqaror rivojlantirishda qurilish ishlarini ekologik muvozanatni saqlagan holda olib borish, aholi uchun sog'lom va qulay muhit yaratish ustuvor vazifa bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi tarixi. 4-jild. — Toshkent: Sharq, 2011.
- 2.O'zbekiston shaharlarining eng yangi tarixi. Kollektiv monografiya. Toshkent: Yangi nashr, 2017
- 3.E.A Axmedov O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida T.Abu Ali Ibn Sino 2022.
4. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi "Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yig'inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oishirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 286-sonli qarori
- 5.Qarshi: Buguni obod, ertasi nurafshon // Xalq so'zi. №179 (6362), 15 sentyabr 2015
- 6.Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. — Toshkent, 2003.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi hisobotlari. — T. 2001.
- 8.Jizzax viloyati hokimligi yillik hisobotlari. Jizzax, 2012
- 9.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari. Toshkent,
- 10.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. «O'zbekiston shaharlari infratuzilmasi», Toshkent,
- 11.Iqtisodiy islohotlar va shahar rivoji. Ilmiy to'plam, Toshkent, 2015